

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTSIONAL TIZIMI (BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI)



Nigmatov Ruftullo Olimjonovich

IIV Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, falsafa doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi institutsional tizimi tahlil qilingan. Muallif Buyuk Britaniyaning tarixiy rivojlangan va mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan politsiya, prokuratura hamda maxsus xizmatlar tizimiga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya, politsiya tizimi, prokuratura, CPS, jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqni muhofaza qilish organlari, maxsus politsiya xizmatlari.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СИСТЕМА БОРЬБЫ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ (ОПЫТ ВЕЛИКОБРИТАНИИ)

Аннотация. В статье проанализирована институциональная система борьбы с преступностью в Великобритании. Авторы уделяют внимание исторически сложившейся и регионально обусловленной системе полиции, прокуратуры и специальных служб.

Ключевые слова: Великобритания, полицейская система, прокуратура, CPS, борьба с преступностью, правоохранительные органы, специализированные службы полиции.

THE INSTITUTIONAL SYSTEM OF CRIME FIGHTING (THE EXPERIENCE OF THE UNITED KINGDOM)

Abstract: This article analyzes the institutional system of the United Kingdom in the fight against crime. The authors focus on the country's historically developed and regionally specific systems of police, prosecution, and special services.

Keywords: United Kingdom, police system, prosecution, CPS, crime prevention, law enforcement agencies, special police services.

Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashishning institutsional tizimi uzoq tarixga va murakkab strukturaga ega. Ushbu tizim bir nechta davlat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z faoliyati doirasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

Buyuk Britaniyaning huquqni muhofaza qiluvchi organlari huquqiy tizimi mamlakatning har bir alohida hududida mustaqil tarzda tashkil etilgan: jumladan, Angliya va Uels, Shimoliy Irlandiya (Shimoliy Irlandiya politsiyasi) va Shotlandiya (Shotlandiya politsiyasi).

Huquq-tartibotni saqlash vazifalari asosan yuqorida tilga olingan yurisdiksiyadan biriga tegishli bo'lgan hududiy politsiya xizmatlari (shuningdek, "hududiy politsiya kuchlari" deb ham ataladi) zimmasiga yuklatilgan.

Bu hududiy xizmatlarga qo'shimcha ravishda umum Britaniya miqyosidagi agentliklar, shuningdek, ayrim hududiy politsiya kuchlari tarkibiga kiruvchi ixtisoslashtirilgan bo'linmalar ham huquq-tartibotni saqlashda ko'maklashadi.

Buyuk Britaniyaning asosiy huquqni muhofaza qilish organi bu politsiya xizmatidir. XX asrdan boshlab Buyuk Britaniya politsiyasi rasman mahalliy hokimiyatlarga bo'ysunsa-da, amalda

Ichki ishlar vaziri (Angliya va Uelsda), Shotlandiya davlat ishlari bo'yicha vaziri hamda Shimoliy Irlandiya politsiya boshqarmasi boshlig'i nazorati ostida faoliyat yuritadi. Hududiy politsiya kuchlari faoliyatini nazorat qiluvchi vazirlik Inspektoratlarining tashkil etilishi va ichki ishlar vaziriga politsiya tuzilmalari ishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish vakolatining berilishi Buyuk Britaniya politsiya kuchlarining asta-sekin Ichki ishlar vazirligiga bo'ysundirilayotganidan dalolat beradi. Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati va strategiyasini Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi belgilaydi.

Buyuk Britaniya politsiya kuchlari XX asrdan boshlab bir-biridan mustaqil bo'lgan to'rtta politsiya tuzilmasini o'z ichiga oladi: 1) hududiy politsiya bo'linmalari (ma'muriy taqsimotga ko'ra); 2) maxsus politsiya bo'linmalari; 3) politsiya vazifalarini bajarmasa-da, qonunni himoya qiluvchi bo'linmalar (Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya politsiyasining yuqori lavozimli zobitlari uyushmasi — mas'uliyati cheklangan xususiy kompaniya shaklida); 4) eski qonunchilik yoki umumiy huquqqa asoslangan boshqa politsiya kuchlari (port politsiyasi, xiyobon politsiyasi, bozor politsiyasi kabilar).

Buyuk Britaniya politsiya tuzilmalarini *markaziy boshqaruv organlari* quyidagilardan iborat: Ichki ishlar vazirligi; Mudofaa vazirligi; Energetika va iqlim o'zgarishi vazirligi; Transport vazirligi.

Hududiy politsiya kuchlari (Territorial Police Forces) Buyuk Britaniyaning huquqni muhofaza qiluvchi organlari orasida eng ko'p sonli hisoblanadi. Politsiya vazifalarining asosiy qismi aynan ularga yuklatilgan. Tarixan shunday shakllanganki, Buyuk Britaniyadagi bu bo'linmalar hududiy tamoyil asosida tashkil etilgan — har bir tarixiy-geografik hudud uchun alohida, jumladan, Angliya va Uels, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya.

Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachi Britaniya imperiyasi parchalangach, Buyuk Britaniya hukumati politsiyani ta'minlash uchun ajratiladigan mablag'larni ko'paytirdi hamda politsiya bo'linmalarini yiriklashtirish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining nazoratidan chiqarish yo'nalishini belgiladi.

1946–1947-yillarda qabul qilingan “Politsiya to'g'risida”gi qonun asosida Angliya va Uelsda politsiya boshqarmalari soni 124 taga (grafliklarda 52 ta, shaharlarda 72 ta), Shotlandiyada esa 33 taga (grafliklarda 19 ta va shaharlarda 14 ta) qisqartirildi [1; 77-b.].

Shu bilan birga, Shotlandiyada 1890-yildagi “Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risida”gi qonun kuchga kirganidan 1975-yilgacha politsiya tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Biroq, 1967-yildagi “Politsiya to'g'risida”gi qonunda belgilangan birlashtirish jarayoni natijasida politsiya bo'linmalari soni 1945-yildagi 49 tadan 1968-yilda 22 taga qisqardi. 1973-yildagi “Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risida”gi qonun 1975-yilda kuchga kirganda, bu tuzilmalar soni sakkiztagacha qisqardi. 1999-yildan boshlab politsiya faoliyati Shotlandiya hukumati vakolatiga o'tkazildi. 2013-yilda esa sakkizta politsiya tuzilmasi yagona tizimga birlashtirildi.

1990-yillarda Buyuk Britaniya hukumatining Shimoliy Irlandiyadagi zo'ravonlikning oldini olish uchun siyosiy yechim topishga urinishlari 1998-yilda Belfast kelishuvi (yoki “Ehtirosli juma” kelishuvi) imzolanishiga olib keldi. Natijada, Shimoliy Irlandiya uchun o'tish davri hukumatining yangi tuzilmasi yaratildi. Bu tuzilma Shimoliy Irlandiya Assambleyasi va birinchi vazir rahbarligidagi ijro etuvchi hokimiyatdan iborat bo'lib, unda vakolatlarni taqsimlash to'g'risida kelishuvga erishgan Shimoliy Irlandiyaning asosiy siyosiy partiyalari vakillari ham o'rin oldi.

Belfast kelishuvining e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Shimoliy Irlandiyada politsiya faoliyatining kelajakdagi mexanizmlarini o'rganish uchun komissiya tuzildi. Ushbu qaror asosida Kengash (Shimoliy Irlandiyada tartib-intizomni saqlash bo'yicha mustaqil komissiya, 1999-yil) tashkil etildi. Kengash Shimoliy Irlandiya politsiya xizmatini tashkil etishda va uning faoliyati samaradorligini oshirishda Angliya, Uels va Shotlandiya Politsiya boshqarmasi namunasiga asoslangan Shimoliy Irlandiya tartib-intizomni saqlash kengashi nazorat qilishini tavsiya etdi. Bu taklif 2000-yildagi “Politsiya to'g'risida”gi qonun bilan amalga

kitirdi. Yangi tashkil etilgan Kengash turli siyosiy partiyalarning 19 nafar a'zosi va jamoatchilik vakillaridan iborat edi. Yangi politsiya 2001-yil 4-noyabrda faoliyatini boshladi. Uning o'ziga xos xususiyati 2002-yil aprel oyidan boshlab yangi xodimlarni 50 foiz katolik va 50 foiz katolik bo'lmaganlar nisbatida yollash edi. Keyinchalik katoliklar vakillarini 30 foizgacha qisqartirish rejalashtirilgandi [2; 22-b.]. 2008-yil boshiga kelib bu maqsadga deyarli erishildi. Xodimlar soni taxminan 7500 nafar ofitser va 4000 ga yaqin fuqarolik xizmatchilarini tashkil etdi.

Buyuk Britaniyada mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bevosita aloqada tashkil etilgan 45 ta politsiya tuzilmasining eng ko'p qismi, ya'ni 43 tasi, Angliya va Uelsda joylashgan bo'lib, ularda jami 117 456 nafar xodim xizmat qilmoqda (islohotlar va optimallashtirish jarayonida xodimlar soni qisqartirilmoqda [3]: 2010-yilda 143 734 kishi, 2011-yilda 139 110 kishi, 2012-yilda 134 098 kishi, 2013-yilda 129 584 kishi, 2014-yilda 127 909 kishi, 2015-yilda 127 478 kishi, 2018-yilda esa 117 456 kishi edi). Hozirgi vaqtda Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyaning har birida bittadan shunday tuzilma faoliyat yuritmoqda.

Odatda, politsiya bo'linmalari ma'muriy okruglar darajasida tuziladi. Har bir tuzilmaga bosh konstebel rahbarlik qiladi (London shahri bundan mustasno, bu yerda poytaxt politsiyasi va London Siti politsiyasi komissarlari tomonidan boshqariladi). Bosh konstebel aholi manfaatlarini ko'zlab o'tkaziladigan operatsiyalarga umumiy qo'mondonlik qilish, shuningdek, ma'lum bir hududda unga ishonib topshirilgan bo'linma uchun ichki ishlar vaziri va politsiya ishlari bo'yicha vakil oldida javobgardir.

Buyuk Britaniya politsiya tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hududiy politsiya tuzilmalari boshqaruvi tarkibida politsiya ishlari bo'yicha vakolatli shaxslarning (2012-yilgacha politsiya ma'muriyati) mavjudligidir. Angliya va Uelsning har bir hududida (grafliklar, shaharlar) ushbu politsiya boshqaruv organi mavjud bo'lib, u aholining mahalliy darajadagi politsiya ustidan nazoratini amalga oshirish shakli hisoblanadi.

Aynan politsiya ishlari bo'yicha vakolatli shaxslar mahalliy politsiya tuzilmalarining oqilona va samarali faoliyati uchun mas'uldirlar [4].

Ichki ishlar vazirligi, bosh konstebel va politsiya ishlari bo'yicha vakolatli shaxslar o'zaro yaqin hamkorlikda faoliyat yuritib, uch tomonlama nazorat tizimini ta'minlaydilar. Bu hududiy politsiya faoliyatiga siyosiy aralashuvni cheklash maqsadida amalga oshirilgan.

Jamoat tartibini saqlash vazifalarini bajarish uchun, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, politsiya tuzilmalari Superintendentlar rahbarligidagi turli xizmatlar va bo'linmalarni o'z ichiga oladi. Har bir politsiya bo'linmasida quyidagilar mavjud: patrul-post xizmatini amalga oshiruvchi jamoat xavfsizligi politsiyasi; jinoyatlarni tergov qilish, jinoyatchilarni qidirib topish va hibsga olish, statistik ma'lumotlarni yuritish bilan shug'ullanuvchi Jinoyatlarni tergov qilish departamenti; yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qiluvchi, patrul xizmatini olib boruvchi, transport bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qiluvchi Yo'l harakati xavfsizligi politsiyasi; ekstremizm va terrorizm profilaktikasi va ularga qarshi kurashish, shuningdek, siyosiy, diniy va jamoat arboblarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan maxsus xizmat. U yana o'qotar qurollar va portlovchi moddalarning noqonuniy aylanishi bo'yicha ishlarni tergov qiladi.

Har bir bo'lim o'z hududidagi politsiya stansiyalari (uchastkalari) faoliyatini nazorat qiladi. Bu stansiyalarning funksional vazifalariga huquqbuзарliklarning oldini olish va o'z hududlarida amalga oshiriladigan boshqa ishlar kiradi. Har bir stansiyada alohida navbatchilik qismi, jinoyatlarni tergov qilish bo'limi hamda ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar uchun kameralar mavjud. Politsiya stansiyasiga inspektor yoki serjant boshchilik qiladi.

Ikki asr davomida *London poytaxt politsiyasi* Buyuk Britaniyadagi eng yirik politsiya tuzilmasiga aylandi. Uning nazorati ostidagi hudud Katta Londonni, shu jumladan shahar atrofini (maydoni – 2 ming kvadrat kilometr, aholisi taxminan 7 million kishi [5; 104-b.]) o'z ichiga oladi. Faqat

London markazida joylashgan Siti – mamlakatning ishbilarmonlik markazi bundan mustasno bo'lib, u o'z politsiyasi tomonidan nazorat qilinadi. 2020 yillarga kelib, London politsiyasining shaxsiy tarkibi 28 953 nafar xodimdan (maxsus unvonlarga ega bo'lgan) iborat edi [6].

Poytaxt politsiya xizmatining shiori quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: "Londonni dunyodagi eng xavfsiz poytaxtga aylantirish uchun hamkorlikda ishlash". Shahar politsiya xizmatining faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi [7; 44-b.]: Londondagi har bir saylov okrugida politsiya ishtirokini ta'minlash; terrorizmga qarshi kurashish va xavfsizlikni mustahkamlash; jinoyatchilarning harakatlarini fosh etish orqali ular tomonidan shaharga yetkazilgan zararni kamaytirish; transport harakati xavfsizligini ta'minlash, shu bilan birga ish jarayonida mosla-shuvchanlikni namoyon etish; zarurat tug'ilganda politsiya xodimlari va aholini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash; politsiya xizmatining ochiqqligini ta'minlash va uning faoliyati natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini inobatga olish; xodimlarning boshqaruv sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish.

Poytaxt politsiyasining tuzilishini barcha mahalliy tuzilmalar (hududiy xususiyatlar, infratuzilma va aholi sonini hisobga olgan holda) takrorlaydi.

Skotlend-Yardning asosiy funksional bo'limlari quyidagilardan iborat: ma'muriy bo'lim ("A" bo'limi), ko'cha harakati va transport bo'limi ("B" bo'limi), kadrlarni shakllantirish va tayyorlash bo'limi ("D" bo'limi), yuridik bo'lim ("L" bo'limi), kotibiyat ("S" bo'limi), boshqaruv xizmati bo'limi, jinoyat ishlarini tergov qilish bo'limi ("C" bo'limi, ingliz adabiyotida "CID" deb ataladi — Criminal Investigation Department nomining qisqartmasi) hamda boshqa yordamchi bo'limlar [8; 140-b.].

Departament boshida Ichki ishlar vaziriga bo'ysunadigan poytaxt politsiyasi komissarining yordamchisi turadi. Poytaxt politsiyasining Jinoyatlarni tergov qilish departamenti keng qamrovli vazifalarga ega bo'lib, ular orasida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan

funksiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot sohasidagi eng xavfli jinoyatlarni markaziy bo'lim ("S" bo'limi) detektivlari tergov qiladi.

Maxsus politsiya kuchlari (Special Police Forces) muayyan vakolatlarni amalga oshiradi va butun mamlakat bo'ylab yurisdiksiyaga ega. Ular Ichki ishlar vazirligiga bo'ysunmaydi va faqat ularni tashkil etgan idoralar oldida javobgardir. Xodimlarining vakolatlari faqat o'z idoralari kontingentiga nisbatan tatbiq etiladi, biroq xizmatni politsiya formasida olib boradilar. Maxsus politsiya kuchlariga quyidagilar kiradi:

Britaniya transport politsiyasi (British Transport Police – bundan keyin BTP) 1830-yilda temiryo'l va uning atrofida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Transport politsiyasi Angliya, Uels va Shotlandiya hududida harakatlantiruvchi temiryo'l operatorlari va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, u London metrosi, Doklanddagi yengil yerusti metrosi, Midland tramvay tizimi, Kroydon shahri tramvay tarmog'i va Glazgo shahri metrosida politsiya nazoratini amalga oshiradi [9].

Dunyodagi birinchi ommaviy temiryo'l yuk va yo'lovchilarni lokomotivda tashish uchun mo'ljallangan Liverpool va Manchester orasida 1830-yilda gersog Vellington tomonidan rasman ochilgan. Bu voqeadan bir necha oy o'tgach, birinchi temiryo'l politsiyasi tashkil etildi. Uning xodimlari Karl II hukmronligi davrida 1673-yilda qabul qilingan qonunga binoan maxsus konstebllar sifatida qasamyod qildilar. Ularning vazifalariga temiryo'l-larda qonuniylik va tartibni ta'minlash, poyezdlar harakatini boshqarish kirardi. 1831-yilda "Maxsus konstebllar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, temiryo'l politsiyachilarining vakolatlari nafaqat temiryo'lga, balki unga tutash hududga ham tatbiq etildi.

Zamonaviy Britaniya transport politsiyasi 2003-yilgi "Temiryo'l va transport xavfsizligi to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat yuritadi. 2014-yilgacha u yettita hududiy bo'linmadan iborat edi: Yutlandiya (12 ta politsiya uchastkasi), Shimoli-g'arbiy (12 ta), Shimoli-sharqiy tuman (12 ta), Uels va G'arbiy tuman (13 ta), Shimoliy

London (20 ta), Janubiy London (11 ta), London metrosi (8 ta).

2014-yilning aprelida Transport politsiyasi tuzilmasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar Buyuk Britaniya temiryo'llaridan foydalanuvchi yo'lovchilar soni 16–20 foizga oshgani sababli temiryo'l tarmog'ini kengaytirish zarurati bilan bog'liq edi. Avvalgi BTP xizmat ko'rsatadigan barcha hududlar politsiya kuchlarini butun temiryo'l tarmog'i bo'ylab yanada samaraliroq taqsimlash va ulardan foydalanish maqsadida uchta yirik bo'limga birlashtirildi. Yangi tuzilmalar Buyuk Britaniya temiryo'llariga xizmat ko'rsatadigan uchta geografik mintaqani o'z ichiga oladi (bosh qarorgohi Londondagi Kamden Taun tumanida joylashgan).

Britaniya transport politsiyasini moliyaviy ta'minlashning 95 foizi temiryo'l kompaniyalari, Network Rail va London metropoliteni hissasiga to'g'ri keladi. Boshqa temir yo'l operatorlari ham Britaniya transport politsiyasi bilan tuzilgan xizmat ko'rsatish shartnomalari asosida moliyalashtirishda ishtirok etadi. Biroq bu holat kompaniyalarga Britaniya transport politsiyasi uchun vazifalar belgilash huquqini bermaydi. Politsiya boshqaruvida sanoat vakillari mavjud bo'lsa-da (13 a'zodan 5 nafari), ular faqat maslahat berish vakolatiga ega.

Britaniya transport politsiyasi faoliyatini nazorat qilish *Britaniya transport politsiyasi boshqarmasi* – British Transport Police Authority (BTPA) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organ 2003-yildagi "Transport va temir yo'llarda xavfsizlik to'g'risida"gi qonunga muvofiq, BTP uchun ustuvor maqsadlarni belgilaydi hamda uning samarali faoliyatini ta'minlash uchun javobgardir. BTPA zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: BTP faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish; Britaniya transport politsiyasi xodimlari bajarishi shart bo'lgan hujjatlarni chiqarish; byudjetdan alohida bo'linmalarga mablag' ajratish; yuqori politsiya lavozimlariga tayinlash, jumladan bosh konstebel, uning o'rinbosarlari, bosh konstebel yordamchilari, shuningdek moliya va kadrlar xizmatlari direktorlari lavozimlariga; turli transport kom-

paniyalari bilan ularning obyektlarida politsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bitimlar tuzish. Ichki ishlar vazirligi terrorizmga qarshi kurashish doirasida BTPAga mablag' ajratadi.

Shu sabablarga ko'ra BTPA ko'plab Yevropa mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Gollandiya, Belgiya va Italiya uchun namunaga aylandi, bu mamlakatlarda ham alohida temiryo'l politsiya bo'linmalari faoliyat yuritmoqda.

Yadro energetikasi obyektlaridagi politsiya (Civil Nuclear Constabulary, qisqacha CNC) – fuqarolik yadro energetikasi inshootlarida hamda yadroviy materiallarni tashish jarayonida huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash vazifasini bajaruvchi milliy qurolli politsiyaning maxsus bo'linmasidir.

Ushbu xizmat 2004-yilda qabul qilingan "Energetika to'g'risida"gi qonunning 3-bobiga muvofiq 2005-yil 1-aprelda ta'sis etilgan [10]. Bo'linma Energetika va iqlim o'zgarishlari vazirligi strategik rahbarligi ostida faoliyat olib boradi.

Xodimlarning yurisdiksiyasi faqat yadroviy energetika obyektlari hududiga va ushbu obyektlar atrofidagi 5 km radiusdagi zonaga, shuningdek yadroviy materiallarni tashish va transportirovka qilishda amal qiladi. Ko'rsatilgan hududlarda atom energetikasi obyektlaridagi politsiya xodimlari oddiy politsiya xodimlari bilan bir xil vakolat va imtiyozlarga ega. Patrullik qiluvchi xodimlar o'qotar qurollar: Heckler&Koch G36 avtomat va Glock 17 to'pponchalar bilan qurollangan. Bundan tashqari, barcha xizmatchilar maxsus vositalar: CS gazi (aerozol), tazer (elektroshoker), politsiya teleskopik to'qmog'i va plastik o'qlar bilan ta'minlangan [11]. Bo'linma ko'p sonli patrul mashinalari va "tutib oluvchilar" (Ford S Max), shuningdek, Mitsubishi Pajero/Shogun patrul transport vositalaridan, eskort transport vositasi sifatida BMW X5 avtomobillaridan foydalanadi.

750 nafar xodimdan iborat politsiya kuchlari Angliya, Shotlandiya va Uelsda joylashgan 16 ta yadro obyektning xavfsizligini ta'minlaydi. Bu obyektlar butun mamlakat bo'ylab tarqalgan (Shimoliy Irlandiyada esa yadro obyekti mavjud

emas) [12]. Ulardan bittasi bosh ofis (Culham), oltitasi Eksploatatsiya birliklari sifatida tasniflanib, bu yerda politsiya xizmati odatiy tartibda olib boriladi, to'qqizitasi esa Qo'llab-quvvatlash birliklari bo'lib, ularda kuchaytirilgan qurollangan politsiya qo'riqchiligi ta'minlangan. Ofitserlar kimyoviy, bakteriologik, radiatsion va yadroviy himoya vositalarini qo'llash bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tganlar.

Bo'linma tarkibiga hududiy tamoyil asosida tashkil etilgan uchta Bosh boshqarma (Basic Command Unit) kiradi. Ularning har biriga Super-intendant rahbarlik qiladi:

1) Shotlandiyadagi yadro obyektlari (Chapelkross, Daunri, Xanterston, Torness) uchun mas'ul "Shotlandiya" bosh boshqarmasi;

2) Angliya va Uels shimolida joylashgan yadro obyektlari (Kapenxerst, Xartlpul, Keyshem, Sellafiyeld, Springfilds, Uilfa) uchun mas'ul "Shimol" bosh boshqarmasi;

3) Angliya janubidagi yadro obyektlari (Gulxem, Danjeniss, Xaruel, Xinkli nuqtasi, Oldberi, Sayzuel) uchun mas'ul "Janub" bosh boshqarmasi.

Buyuk Britaniyaning atom elektr stansiylariga xizmat ko'rsatuvchi 17 ta kompaniya yadro energetikasi obyektlaridagi politsiyani moliyalashtiradi. CNC xarajatlarining taxminan uchdan bir qismi asosan Amerika va Fransiya firmalariga qarashli bo'lgan Sellafiyeld boshqaruvini amalga oshiruvchi xususiy konsorsium tomonidan qoplanadi. Moliyalashtirishning deyarli beshdan bir qismini esa "British Energy" kompaniyasi ta'minlaydi.

Mudofaa vazirligi politsiyasi (The Ministry of Defence Police – qisqacha MDP) 1971-yilda uchta: harbiy-havo, quruqlik va harbiy-dengiz kuchlari politsiya kuchlari boshqarmasining birlashishi natijasida tashkil topgan. Xodimlar soni 5000 nafardan ortiqni tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi harbiy obyektlar xavfsizligini ta'minlashdir. Xodimlarning vakolatlari ancha keng bo'lib, hududiy va maxsus politsiya bo'linmalari zobitlarining barcha huquqlarini o'z ichiga oladi: armiya xavfsizligini ta'minlash va terrorizmga

qarshi kurashish faoliyati; jinoyat ishlarini tergov qilish; jinoyatchilik darajasini pasaytirish; o'z vakolati doirasidagi xalqaro aloqalar; kadrlarni tayyorlash. MDP Mudofaa vazirligi va harbiy sanoatning muhim obyektlari joylashgan 120 ta shaharda xavfsizlikni ta'minlab kelmoqda.

MDP quyidagi bo'linmalarni o'z ichiga oladi: firibgarlikni aniqlash va tergov qilishga ixtisoslashgan firibgarlikka qarshi kurash bo'linmasi; harbiy-dengiz bazalarini himoya qilish hamda kemalar va suv osti kemalarini kuzatib borish vazifasini bajaruvchi dengiz piyodalari; tezkor qo'llab-quvvatlash guruhi — Buyuk Britaniyaning butun hududida qisqa vaqt ichida joylashtirilishi mumkin bo'lgan harakatchan bo'linma (o'q-dorilar va portlovchi moddalarni yoki yadroviy, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash uchun);

- yadroviy materiallarni tashish vaqtida ularni qo'riqlash vazifasini bajaruvchi maxsus kuzatuv guruhi;

- patrullik qilish, qurol-yarog', portlovchi moddalar va giyohvand moddalarni qidirishni amalga oshiruvchi 300 ga yaqin maxsus tayyorlangan politsiya itlaridan iborat kinologiya bo'linmasi;

- xorijda tinchlikni saqlash va mojarolarni hal qilish faoliyatida ishtirok etuvchi tajribali MDP xodimlaridan tashkil topgan xalqaro razvedka bo'linmasi.

Qirollik harbiy politsiyasi (Royal Military Police — qisqacha RMP) mustaqil tuzilma bo'lib, tarkibida taxminan 2500 nafar xodim mavjud. Ular "qizil beretlar" deb ataladi va harbiy jamiyatning politsiya xizmatini ta'minlash uchun mas'uldir. Qirollik harbiy politsiyasining tarixi 1241-yildan boshlanadi va harbiy xizmatchilar orasida huquq-tartibotni ta'minlash vazifasini bajaradi [13]. U harbiy jinoyatlarni tergov qilish, qo'shinlardagi ommaviy hodisalarning oldini olish, garnizonlarda patrullik xizmatini olib borish va harbiy bazalarda tartib-intizomni saqlash uchun mas'uldir.

RMP maxsus tergov bo'limi (SIB) xodimlari harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan turli xil jinoyatlar (firibgarlikdan tortib, nomusga tegish va odam o'ldirish)ni tergov qiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy agentligi (The National Crime Agency – bundan keyin NCA). Bu mamlakatda tashkil etilgan uyushgan jinoiy faoliyatga qarshi kurashish bo'yicha uchinchi bo'linmadir. 1998-yilda hukumat 6 ta mintaqaviy bo'limni Londonda joylashgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yagona milliy guruhga birlashtirdi. 2006-yilda 2005-yildagi "Politsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi qonun bilan tashkil etilgan Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash agentligi (Serious Organized Crime Agency — SOCA) tashkil etildi va 2013-yil 7-oktyabrda tugatildi [14]. Ko'rsatilgan vaqtdan boshlab uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini NCA boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Agentlik xodimlarining umumiy soni 4157 nafarni tashkil etib, ulardan 2067 nafari 2014-yil 31-iyul holatiga ko'ra operativ vakolatlarga egadir. NCA yangi xodimlarni jalb qilish va mavjud xodimlarni o'qitish orqali vakolatli ofitserlar sonini oshirishni rejalashtirmoqda. Har chorakda taxminan 96 nafar ofitser zarur tayyorgarlikdan o'tib, tegishli imtihonlarni topshiradi.

NCA tarkibiga bir nechta bo'linmalar kiradi: chegaralar xavfsizligini kuchaytirish maqsadida faoliyat yurituvchi chegara nazorati qo'mondonligi (The Border Policing Command); Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'linmasi (Economic Crime Command) — butun Buyuk Britaniya bo'y-lab iqtisodiy jinoyatchilik ta'sirini, shu jumladan uyushgan jinoyatchilikni moliyalashtirishni kamaytirish uchun faoliyat olib boradi; Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'linmasi (The Organised Crime Command) — uyushgan jinoiy faoliyatni aniqlash, to'xtatish va aybdorlarni javobgarlikka tortish bo'yicha milliy sa'y-harakatlarni tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi; Milliy kiberjinoyatchilik bo'linmasi (National Cyber Crime Unit) turli ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, jinoiy kibertahdidlarga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiradi; SPIN (CEOP – Bolalarni ekspluatatsiya qilinishidan onlayn himoya markazi) jamoasi, bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy ekspluatatsiya hamda

zo'ravonlikni yo'q qilishni maqsad qilgan. U Buyuk Britaniya va chet eldagi bolalarni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, bolalarga nisbatan asosiy tahdidlarni, jumladan internet tarmog'idagi xavflarni aniqlaydi va qonunbuzarlarni javobgarlikka tortish uchun bu tahdidlarga qarshi faoliyatni muvofiqlashtirib boradi. NCA chet elda yashirib yurgan jinoyatchilarni qidirish va hibsga olish bilan ham shug'ullanadi.

NCA, SOCA dan farqli o'laroq, boshqa tuzilmalar bilan samarali hamkorlik yuritish uchun muhim bo'lgan ancha keng vakolatlarga ega. Xususan, NCA politsiya va boshqa muassasalarga muayyan vazifalar yoki operatsiyalarni bajarishni topshirish huquqiga ega. NCAning vakolat doirasi Angliya, Uels va Shotlandiyani qamrab oladi. Shimoliy Irlandiyada esa Agentlik faqat o'zining chegara va bojxona vazifalarini bajaradi, uning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi boshqa majburiyatlari mahalliy politsiya bo'linmalariga yuklanadi.

NCAning majburiyatlariga yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, Britaniya va xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarni ta'minlash ham kiradi.

NCA doirasida Buyuk Britaniyaning xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha Milliy markaziy byurosi (bundan keyin – NCB) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Interpol (Interpol) dunyodagi eng yirik Xalqaro politsiya tashkiloti bo'lib, unga 190 dan ortiq mamlakat a'zo. Buyuk Britaniya 1956-yil 13-iyundan beri Interpol a'zosi hisoblanadi. **Yevropol** (Europol) – Yevropa Ittifoqiga a'zo 28 ta mamlakat hamda Yevropa Ittifoqiga kirmagan boshqa davlatlar va tashkilotlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqindan hamkorlik olib boruvchi xalqaro politsiya tashkilotidir. Yevropol shtab-kvartirasida joylashgan Buyuk Britaniyaning Yevropol milliy guruhi va Aloqa byurosi NCA xalqaro bo'limining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning ikkisi ham Britaniyaning Interpol Byurosi, Yevropa Shengen Axborot Tizimi Byurosi (SIRENE) va keng qamrovli aloqa ofitserlari tarmog'i yonida joylashgan.

SIRENE – Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari orasidagi hamkorlik va muvofiqlashtiruvni qo'llab-quvvatlaydigan tarmoq.

Manchesterdagi Interpol NCBsi xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashni tergov ishlari bilan muvofiqlashtirish va ularga maxsus yordam ko'rsatish orqali olib boradi. Shuningdek, u Buyuk Britaniya politsiya kuchlari va butun dunyo huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun Interpol aloqa tizimlaridan foydalanadi. NCB Britaniya agentliklariga butun dunyo bo'ylab Interpolga a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan aloqa o'rnatish imkonini beruvchi aloqa tarmog'ini taqdim etadi. Bundan tashqari, u Interpol ma'lumotlar bazalari va politsiya xizmatlariga xavfsiz hamda bevosita kirish imkoniyatini ta'minlaydi. Uning xodimlari jinoiy faoliyatda ishtirok etgan shaxslarni tergov qilish, o'tkazish va xalqaro politsiya harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, chet elda odil sudlovdan yashiringan jinoyatchilarni yoki Buyuk Britaniyaga kelib, boshqa mamlakatlarda qidiruv e'lon qilingan shaxslarni izlash bilan shug'ullanadilar. NCB jamoatchilik vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmaydi. Barcha so'rovlar mahalliy politsiya yoki huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim etiladi.

NCB kuniga 24 soat, yilda 365 kun faoliyat yuritadi. Shoshilinch so'rovlar Boshqaruv markazi tomonidan 24/7 tartibida, ya'ni haftaning yetti kuni kecha-yu kunduz ko'rib chiqiladi. Qolgan barcha vazifalarni tergovchilarning ikki ekspert guruhi, ya'ni ish faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi hamda odil sudlovdan yashiringan shaxslarni qidirish guruhi bajaradi.

Manchesterdagi NCB tarkibida strategiya va qo'llab-quvvatlash guruhi mavjud bo'lib, u kotibiyat vazifasini bajaradi hamda Britaniya huquqni muhofaza qilish organlari mutaxassislari va Interpol ma'lumotlari o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydi.

NCB Buyuk Britaniya hukumatining o'z hududlarini, jumladan 14 ta dengiz orti hudud-

larini, xalqaro terrorizm va uyushgan jinoyatchilik tahdidlaridan himoya qilishiga ko'maklashishda muhim rol o'ynamoqda. Bu vazifani bajarishda NCB alohida ahamiyatga ega bo'lib, hukumatga samarali yordam ko'rsatmoqda. Manchesterdagi NCB bilan bir qatorda, Interpolning yettita kichik bo'limi (Interpol Sub Bureaus) mavjud bo'lib, ularning har biriga hududiy vakolatlar berilgan: Angliya, Bermud orollari, Britaniya Virgin orollari, Kayman orollari, Gibraltar, Monserrat,

Turks va Kaykos orollari. Interpol Manchesterning kichik bo'limlari Buyuk Britaniya politsiyasi va Interpolning xalqaro huquqni muhofaza qilish hamjamiyati o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Interpol Manchester Sub-Bureosi Buyuk Britaniya politsiyasi bilan Interpolning xalqaro huquq-tartibot idoralari hamjamiyati o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Har bir bo'linma dengiz orti hududining milliy politsiya kuchlari tarkibiga kirib, ushbu davlatga oid yoki undan xalqaro huquqiy yordam talab qiladigan barcha Interpol tergov ishlari uchun aloqa markazi vazifasini bajaradi.

NCA faoliyatining dastlabki yilidayoq (2014): 1000 dan ortiq jinoyatchi va ular a'zo bo'lgan guruhlarining jinoiy faoliyatiga barham berildi; butun dunyo bo'ylab 3000 dan ziyod shaxs hibsga olindi, shundan Buyuk Britaniyada 2048 nafar va chet ellarda 1181 nafar; 400 nafar ayblanuvchi hukm qilindi, 1300 dan ortiq bola himoyasi ta'minlandi; zamonaviy qullikning 51 ta holati tergov etildi; 160 dan ortiq noqonuniy muhojir qo'lga olindi, 213 tonnadan ortiq giyohvand moddalar (69,8 tonna kokain, 4,5 tonna heroin, 16,3 tonna afyun, 123,1 tonna nasha) musodara qilindi, 700 dan ortiq o'qotar qurol, jumladan 165 ta to'pponcha olib qo'yildi [15].

Angliya va Uels politsiyasining moliyaviy ta'minoti, bir necha asr avvalgidek, Ichki ishlar vazirligi, Jamoat ishlari va mahalliy boshqaruv departamenti yoki Uels Milliy Assambleyasi tomonidan hamda mahalliy soliqlar hisobiga amalga oshiriladi [16].

